SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIKA XIZMATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jahongirova Gulsanam O‘tkir qizi

Qarshi davlat texnika universiteti Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti talabasi

gulsanamjahongirova11@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlarining tutgan o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Elektron savdo jarayonlarida mahsulotlarni saqlash, qadoqlash, buyurtmalarni qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, logistika xizmatlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Tadqiqot davomida elektron tijorat sohasida logistika faoliyatini samarali tashkil etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Tahlillar natijasida logistika tizimini takomillashtirish va mahsulotlarni yetkazib berish jarayonini yanada qulay tashkil etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

elektron tijorat, logistika xizmatlari, yetkazib berish tizimi, logistika infratuzilmasi, transport xarajatlari, omborxona faoliyati, raqamli texnologiyalar.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar va internet tarmog‘ining keng rivojlanishi elektron tijorat xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Ayniqsa, mahsulotlarni qisqa muddatlarda, sifatli va xavfsiz yetkazib berish, buyurtmalarni samarali boshqarish hamda transport xarajatlarini kamaytirish elektron savdoning shartlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli logistika xizmatlarini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, omborxona faoliyatini samarali tashkil qilish va yetkazib berish tizimini rivojlantirish dolzarb vazifalardandir.

O‘zbekistonda ham elektron tijoratni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish va logistika infratuzilmasini takomillashtirish davlat iqtisodiy siyosatining

muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”[1] gi Qonuni elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Mazkur qonun elektron savdo faoliyatini amalga oshirish, elektron tijorat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilash hamda ushbu sohaning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish kabi omillarga tayanadi. Shu bilan birga, elektron tijoratda logistika xizmatlarini rivojlantirish orqali mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berish, mijozlar ishonchini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatda elektron savdo bozorini kengaytirish imkoniyatlari ortib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu mavzuga oid bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilindi. Xususan, R.Mangiaracina, A.Perego, A.Seghezzi va A.Tumino muallifligidagi “Innovative solutions to increase last-mile delivery efficiency in B2C e-commerce: a literature review”[2]nomli maqolada elektron tijoratda mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib berish samaradorligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Mualliflar logistika xarajatlarini kamaytirish, buyurtmalarni o‘z vaqtida yetkazib berish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyatini asoslab bergan. Tadqiqot natijalari elektron tijoratni rivojlantirishda so‘nggi bosqichdagi yetkazib berish xizmatlarini takomillashtirilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, A.Risbergning “A systematic literature review on e-commerce logistics: towards an e-commerce and omni-channel decision framework”[3] nomli maqolasida elektron tijorat logistikasining rivojlanish yo‘nalishlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Muallif maqolani o‘rganish asosida ta’minot zanjiri, ichki taqsimot, iste’molchiga yetkazib berish va qaytariladigan mahsulotlar logistikasiga oid masalalarni yoritgan. Tadqiqotda logistika jarayonlarini samarali tashkil etish elektron savdo korxonalarining faoliyati va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, S.Özarık, P.Lucas va boshqalar tomonidan yozilgan “Optimizing e-commerce last-mile vehicle routing and scheduling under uncertain customer presence”[4] nomli maqolada elektron tijorat buyurtmalarini yetkazib berishda transport vositalarining yo‘nalishlari va harakat jadvalini optimallashtirish masalalari tadqiq etilgan. Olimlar iste’molchilarning manzilda mavjud bo‘lish ehtimolini hisobga

olish orqali yetkazib berish jarayonining samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqqan. Ushbu tadqiqot logistika xarajatlarini kamaytirish va muvaffaqiyatsiz yetkazib berish holatlarining oldini olishda samarali yechim hisobalanadi.

Mahalliy olimlardan J.Exsonovning “Prospects and Solutions for the Development of Logistics and Marketing Sectors in Uzbekistan”[5]nomli maqolasida O‘zbekistonda logistika va marketing sohalarini rivojlantirish istiqbollari o‘rganilgan. Muallif xalqaro bozor va internet savdosining rivojlanishi sharoitida logistika xizmatlarining ahamiyati ortib borayotganini ta’kidlaydi. Shuningdek, mahsulotlarni qadoqlash, omborlarda saqlash, zaxiralarni boshqarish va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonlarini takomillashtirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari yoritilgan.

A.Ablaizov va R.Ziyodova tomonidan tayyorlangan “The Impact of Logistics and Delivery Services on E-Commerce”[6] nomli maqolada logistika va yetkazib berish xizmatlarining elektron tijorat rivojiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotchilar tezkor va ishonchli yetkazib berish tizimlari, texnologik yangiliklar hamda logistika xizmatlarining iste’molchilar qoniqishi va biznes jarayonlariga ta’sirini o‘rgangan. Xususan, mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berish, transport xarajatlarini optimallashtirish, ombor faoliyatini samarali tashkil etish va raqamli texnologiyalarni joriy etish elektron savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, O‘zbekiston sharoitida elektron tijorat va logistika xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlili, ilmiy abstraksiyalash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, elektron tijorat sohasida logistika xizmatlarini tashkil etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, ularning samarali jihatlarini mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida elektron tijoratda logistika xizmatlari samaradorligini oshirish, yetkazib berish jarayonlarini

takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni logistika tizimiga keng joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlari mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish jarayonini tashkil etuvchi tizim hisoblanadi. Logistika sohasida transport xarajatlarining yuqoriligi va ayrim hududlarda yetkazib berish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy kamchiliklardan hisoblanadi. Shuningdek, buyurtmalarni kechiktirib yetkazish va mahsulotlarni qaytarish jarayonidagi muammolar mijozlar noroziligiga sabab bo'lishi mumkin. Logistika xizmatlarining asosiy afzalligi mahsulotlarni tezkor yetkazib berish hamda mijozlarga qulaylik yaratish imkoniyatidir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va elektron tijoratning rivojlanishiga xizmat qiladi.

1-jadval.

Elektron tijorat logistikasining SWOT tahlili[1]

S — KUCHLI TOMONLAR (STRENGTHS)	W — ZAIF TOMONLAR (WEAKNESSES)
Mahsulotlarni iste'molchilarga tezkor va qulay yetkazib berish imkoniyati. Buyurtmalarni kuzatish orqali yetkazib berish jarayonini nazorat qilish. Logistika jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati. Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Ombor zaxiralarini samarali boshqarish. Transport yo'nalishlarini optimallashtirish imkoniyati.	Logistika xizmatlarini tashkil etish xarajatlarining yuqoriligi. Ayrim hududlarda logistika infratuzilmasining yetarli emasligi. Malakali logistika mutaxassislarining yetishmasligi. Chekka hududlarga yetkazib berishning qiyinligi. Buyurtmalarni qaytarish va almashtirish jarayonlarining murakkabligi. Ombor va transport resurslarining cheklanganligi.
O — IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES)	T — TAHDIDLAR (THREATS)
Sun'iy intellekt yordamida logistika jarayonlarini takomillashtirish. Zamonaviy logistika markazlari va omborxonalarni tashkil etish. Kuryerlik xizmatlari tarmog'ini kengaytirish. Xalqaro elektron tijorat bozorlariga chiqish. GPS va real vaqt kuzatuv tizimlarini joriy etish. Yetkazib berish punktlari va posilka shkaflarini ko'paytirish.	Yoqilg'i va transport xarajatlarining oshishi. Logistika kompaniyalari o'rtasidagi kuchli raqobat. Transport yo'nalishlaridagi uzilishlar va kechikishlar. Inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlik. Xalqaro savdo va bojxona jarayonlaridagi cheklovlar. Kiberhujumlar va mijozlar ma'lumotlarining oshkor bo'lish xavfi.

[1]Muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, jadvalda elektron tijorat logistikasining rivojlanishi, uning afzalliklari va mavjud muammolari haqida so‘z yuritilgan. Bunda logistika xizmatlarining samaradorligi, mahsulotlarni yetkazib berish jarayoni va mijozlarga qulaylik yaratish kabi jihatlar keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, sohada uchraydigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, SWOT tahlilida elektron tijorat logistikasini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlar yoritilgan. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xizmat sifatini oshirish va logistika tizimini takomillashtirish sohaning rivojlanishiga yordam beradi. Umuman olganda, ushbu tahlil elektron tijorat logistikasining hozirgi holatini tushunish va uni yanada rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijoratning jadal rivojlanishi logistika xizmatlari faoliyati bilan chambarchas bog‘liq. Logistika xizmatlari internet orqali buyurtma qilingan mahsulotlarni iste’molchilarga tezkor, xavfsiz va sifatli yetkazib berishga yordam beradi. Uning yordamida mahsulotlarni saqlash, qadoqlash, saralash, tashish va mijozlarga yetkazib berish jarayonlari samarali tashkil etiladi.



1-rasm. Elektron tijoratda logistika xizmatlarining ahamiyati [7].

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, elektron tijoratni rivojlantirish logistika xizmatlari bilan uzviy bog‘liq. Namunaviy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, mahsulotlarni o‘z vaqtida yetkazib berish 92 foizni tashkil etadi. Bu esa xaridorlarning ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, 85 foiz ko‘rsatkich mijozlar mamnunligini oshirishni, 78 foiz esa yetkazib berish xarajatlarini kamaytirishni, 88 foiz buyurtmalarni tezkor qayta ishlashni ko‘rsatadi. Bundan tashqari, samarali logistika tizimi elektron tijorat savdosi hajmining 74 foizga oshishiga sabab bo‘ladi

Keltirilgan foiz ko‘rsatkichlari logistika jarayonlarining elektron savdo samaradorligiga ta’sirini ifodalaydi. Xususan, mahsulotlarni belgilangan muddatda yetkazish xaridorlarning buyurtma berish jarayoniga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Yetkazib berish xarajatlarining qisqarishi esa mahsulotning yakuniy narxini maqbullashtirishga yordam beradi. Buyurtmalarni tezkor qayta ishlash orqali sotuvchilar bir vaqtning o‘zida ko‘proq buyurtmalarni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonlar natijasida elektron savdo korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifati yaxshilanadi va xaridorlarning takroriy xarid qilish ehtimoli ortadi.



2-rasm. Elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlarining asosiy vazifalari[2]

Rasm ma’lumotlariga ko‘ra, logistika xizmatlari elektron tijorat faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Jumladan, mahsulotlarni omborlarda saqlash va buyurtmalarni qayta ishlash savdo jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Tezkor yetkazib berish va transport xizmatlarini samarali tashkil etish esa xaridorlarga qulaylik yaratadi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida buyurtmalar harakatini kuzatish, mahsulotlarning o‘z vaqtida yetkazilishini nazorat qilish imkoniyati kengayadi. Qaytarib olish xizmatlari esa mijozlar huquqlarini himoya qiladi.

Elektron tijoratda logistika xizmatlari mahsulotning sotuvchidan xaridorgacha bo‘lgan harakatini muvofiqlashtiradi. Bunda ombor boshqaruvi mahsulot zaxiralarini to‘g‘ri taqsimlash va buyurtmalarni o‘z vaqtida tayyorlashga yordam beradi. Transport xizmatlari orqali yetkazib berish yo‘nalishlari va muddatlari belgilanadi, mahsulot harakatini kuzatish tizimlari esa buyurtmaning qaysi bosqichda ekanini aniqlash imkonini

[2]Muallif ishlanmasi

beradi. Mahsulotni qaytarish jarayonida esa xaridordan kelib tushgan murojaat asosida tovar qabul qilinadi va tegishli tartibda qayta ishlanadi. Shu tariqa logistikaning har bir yo‘nalishi elektron savdo korxonasining kundalik faoliyatidagi alohida operatsiyalarni boshqarishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlari mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga tezkor, xavfsiz va samarali yetkazib berish jarayonini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida logistika infratuzilmasi, transport xizmatlari, ombor xo‘jaligi, buyurtmalarni qayta ishlash hamda yetkazib berish tizimlarining elektron tijorat faoliyatiga ta’siri o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, logistika xizmatlarining sifati va tezkorligi mijozlar qoniqishi, korxonalar raqobatbardoshligi hamda elektron savdo hajmining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yetkazib berish xarajatlarining yuqoriligi, logistika infratuzilmasining ayrim hududlarda yetarli darajada rivojlanmaganligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi sohada mavjud muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, elektron tijorat sohasida logistika xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish, ombor faoliyatini samarali tashkil etish hamda mijozlarga qulay xizmat ko‘rsatish orqali ortiqcha xarajatlarni kamaytirish mumkin. Kelgusida logistika kompaniyalari va elektron savdo subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion yechimlardan foydalanish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash ushbu sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida elektron tijoratni rivojlantirishda logistika xizmatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, elektron tijorat subyektlari uchun zamonaviy logistika markazlari va avtomatlashtirilgan ombor tizimlarini rivojlantirish, mahsulotlarni saqlash, saralash va buyurtmalarni tayyorlash jarayonlarini raqamlashtirish taklif etiladi;

Ikkinchidan, mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berish muddatlarini qisqartirish maqsadida hududiy kuryerlik xizmatlari tarmog‘ini kengaytirish hamda chekka hududlarda logistika xizmatlari qamrovini oshirish tavsiya etiladi;

Uchinchidan, sun’iy intellekt, GPS monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini logistika jarayonlariga joriy etish orqali transport yo‘nalishlarini optimallashtirish, yoqilg‘i sarfi va yetkazib berish xarajatlarini kamaytirish;

To‘rtinchidan, elektron savdo platformalari va logistika kompaniyalari o‘rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvi tizimini shakllantirish, buyurtmalar holatini real vaqt rejimida kuzatish hamda mijozlarga yetkazib berish jarayoni haqida tezkor ma’lumot taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish;

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi logistika xizmatlari sifatini yaxshilash, elektron tijorat korxonalarining operatsion xarajatlarini kamaytirish, iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va mamlakatda elektron savdo bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-792-son “Elektron tijorat to‘g‘risida’’ https://lex.uz/uz/acts/-6213382

2. Riccardo‘Mangiaracina, Alessandro‘Perego, Arianna Seghezzi va Angela Tumino Innovative solutions to increase last-mile delivery efficiency in B2C e-commerce: A literature review. International Journal of Physical Distribution & Logistics Management, 2019 https://doi.org/10.1108/IJPDLM-02-2019-0048

3. Mangiaracina R., Perego A., Seghezzi A., Tumino A. Innovative solutions to increase last-mile delivery efficiency in B2C e-commerce: a literature review // International Journal of Physical Distribution & Logistics Management. – 2019. – Vol. 49, No. 9. – P. 901–920. https://www.emerald.com/ijpdlm/article/49/9/901-920/163069

4. Sami Serkan Özarık, Lucas P. Veelenturf, Tom Van Woensel, Gilbert Laporte. “Optimizing E-Commerce Last-Mile Vehicle Routing and Scheduling under Uncertain Customer Presence”. Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review, 2021, Vol. 14https://www.sciencedirect.com/science/article

5. Jasurbek R. Exsonov. “Prospects and Solutions for the Development of Logistics and Marketing Sectors in Uzbekistan” https://iqtisodiyot.tsue.uz

6. Akbar Abduvafo‘ugli Ablaizov, Rayhona Jasur kizi Ziyodova. “The Impact of Logistics and Delivery Services on E-Commerce”. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 2025 https://inlibrary.uz

7. Amankulova Mukhlisa Narsafar qizi Markaziy osiyo mamlakatlarida elektron savdoni rivojlantirish tendentsiyalari va istiqbollari “Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali volume 3, issue 04, 2025. april ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869 file:///C:/Users/User/Downloads/202-218%20(1).pdf